Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies and digital transformation.....	1649
Master's student at Silk Road University	
Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....	1656
Azizov Shohsuvor Yuldashevich	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning tahliliyligini oshirish masalalari	1659
Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li	



“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sinhni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfaizovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklaster tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamiy Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjiye	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукажоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilara Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	



ISTE'MOLCHILAR MOTIVASIYASIDA AFZAL KO'RISH NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH

Jalilov Jamshid G'anijonovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Marketing kafedrası dosenti,

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ORCID: 0000-0002-0006-7251

j.jalilov@tsue.uz

Annotatsiya: Maqolada tovarlar xaridida iste'molchilar motivasiyasi bilan bog'liq afzal ko'rish nazariyalari keltirilgan, afzal ko'rish tushunchasi va uning xususiyatlari keltirilgan va iste'molchilarning xarid motivasiyasini oshirish uchun afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish yo'llari izoxlangan.

Kalit so'zlar: motivasiya, iste'molchi motivasiyasi, gedonik motivlar, ijtimoiy motiv, xariddan huzurlanish.

Abstract: In this article are highlighted theories of preference related to consumer motivation in purchasing goods, presents the concept of preference and its characteristics, and explains way to use preference theories to increase consumer motivation to purchase products.

Key words: motivation, consumer motivation, hedonic motives, social motive, shopping pleasure.

Аннотация: В статье представлены теории предпочтений, связанные с мотивацией потребителей к покупке товаров, представлено понятие предпочтения и его характеристики, а также объяснены способы использования теорий предпочтений для повышения мотивации потребителей к покупке.

Ключевые слова: мотивация, мотивация потребителя, гедонистические, социальный мотивы, удовольствие от покупок.

KIRISH

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi aholining turmush darajasini oshirish hisoblanadi. Bunda aholi (istemolchilar)ning iste'mol tovarlari bilan etarli darajada ta'minlanganligi, iste'molchilar o'zlari istagan tovarlarini etarli darajada xarid qilish imkoniyatlariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonida iste'molchilarining manfaatlarini himoya qilish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda, xususan, Jumladan "O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish, aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalariga keng e'tibor qaratilmoqda qaratilmoqda¹.

So'ngi yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan faol siyosat olib borilmoqda. Mamlakatdagi islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish bo'lmoqda. Shu bois, Prezidentimiz tashabbusi bilan xalqimiz turmushini yaxshilash yo'lida juda katta vazifalarni amalga oshirishga kirishildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 dekabrda "Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" PF-29-son² Farmoni va boshqa ko'plab me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

Har doim iste'molchilar tanlovi an'anaviy ravishda iqtisodiyotning diqqat markazida bo'lib kelishi kerak. Iste'molchilarni o'rganishning ommaviy o'rganishga asoslangan marketing tadqiqotlarining an'anaviy yondashuvi iste'mollarni ko'plab xatti-harakatlarini ochib berishga imkon bermaydi.

"Marketing" fani korxonaning bozorda yashab qolish imkoniyatini oshirish maqsadida yuzaga kelgan. Klassik talqinda "Marketing" fani tovar va xizmatlarni sotish zaruriyatidan kelib chiqib, bunda iste'molchiga

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон «Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

2 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Маҳаллада тadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish b'uyicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari t'ug'risida" PF-29-son farmoni. 03.12.2021 йил. <https://lex.uz>.



mahsulotni o'tkazishga asosiy e'tibor qaratiladi. Biroq XX-asrning 50-yillarida bozorda barqaror muvaffaqiyatga erishish uchun insonni faqatgina tovarni sotib olishga undashgina emas, balki uni tovarni sotib olishga yana majbur qilish, ya'ni uni doimiy mijozga aylantirish masalasi aniq va ravshan bo'ldi. Ushbu vaziyatda bitta muammo paydo bo'ldi. Mutaxassislar iste'molchilarga ta'sir o'tkazishda u yoki bu metodni qo'llash qanday oqibatlarga olib kelishini o'rganib olishdi. Biroq, birinchi va takroriy xarid qilish yoki xarid qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilish mexanizmini o'rganish muammo bo'lib qoldi.

Tadqiqotchilar o'z oldilariga qanday murakkab vazifani qo'yganliklarini tushunish uchun xaridor o'ziga-o'zi savol berishi lozim: Nima uchun men doimo A markasidagi tish yuvish pastasidan, B markasidagi rezina saqichdan va S markasidagi kir yuvish kukunidan foydalanaman?. Xaridorning "Chunki menga bu marka yoqadi" degan javobi etarli bo'lmaydi, chunki mazkur javob juda sub'ektiv va mavhum bo'lib hisoblanadi. Mazkur markaning nima uchun xaridorga yoqishini aniqlashtirish zarur. Xaridorning ushbu markaga o'rganib qolganligi, mazkur marka bilan yaxshi tassurotlar bog'langanligi yoki uning barcha do'stlari xam ushbu markadan foydalanishi, xaridorga mahsulot narxining to'g'ri kelishi yoki xaridorning xech qanday sevimli markasi yo'qligi va u mahsulotlardan navbatma-navbat foydalanishini aniqlash lozim. U yoki bu markani tanlashda xaridorni qanday mexanizmlar xarakatga keltirishini o'rganishni tasavvur qilish murakkab masala hisoblanadi.

Bugungi kunda barcha mamlakatlardagi insonlarda iqtisodiy rivojlanish va yanada mustaqil bo'lishga intilish kuzatilmoqda. Sof daromadlarning oshib borishi bilan turmushning o'sib boruvchi standarti tovarlarni xarid qilishdagi ustuvor rag'batlantirishga aylanib bormoqda. Sinchkov tadbirkorlar hamma joylarda ham o'zlarining kelgusi iste'molchilarini bilishlari va ushbu iste'molchilarning extiyojlarini ularning madaniy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qondirish orqali foyda olish mumkinligiga iqror bo'lmoqdalar. Masalan, «Xuoli-28» («Power 28» nomli kir yuvish vositasining xitoycha nomlanishi) zamonaviy Xitoydagi modali atama bo'lib xisoblanadi. Bu kir yuvish vositasi darhol Xitoyda mashhurlikka ega bo'ldi. Televizion, radio va gazeta reklamasi yordamida uni sotish xajmi 10 baravar oshdi va katta miqdorda foyda keltirdi. Yoqimli xidga ega bo'lgan bolalar poyafzalini Chilining Santyago shaxrida joylashgan dunyodagi yagona zavod «Calzados Dolphitos» ishlab chiqaradi. Ushbu zavod 1986 yili ishga tushgan bo'lib, bu davrda sotish hajmi ikki baravardan oshib ketdi va bu mahsulotga bo'lgan talab taklifdan ancha yuqori turadi. «Procter & Gamble» kompaniyasi Mustaqil Davlatlar xamdo'stligi mamlakatlari bozorini bitta idishda ham balzam, ham qazg'oqqa qarshi vositalari bo'lgan shampunlar kabi maxsulotlarni taklif etish orqali egallab olgan. Korxonalarning vazifalaridan biri bo'lib, marketing strategiyasiga iste'molchini o'rganishni ketma-ket tadbqiq etish hisoblanadi.

Iste'molchilar xulq-atvori va motivasiyasini tushunishda qo'yidagi to'rtta tushuncha asos xisoblanadi:

1. Iste'molchi – xo'jayin;
2. Biznesda muvaffaqiyatga erishish uchun iste'molchi motivasiyasini va uning xulq-atvorini tushunish lozim;
3. Iste'molchi xulq-atvori tashqi ta'sir ostida bo'ladi;
4. Iste'molchi bilan ishlashda ijtimoiy qonunchilikka va axloqiy sezgirlikka rioya qilish zarur.

Iste'molchi xulq-atvorini va motivasiyasini tushunish hamda ularni tovarlarni ishlab chiqishda va bozorga siljitish buyicha chora-tadbirlarda e'tiborga olish raqobatli muhit sharoitida yashab qolishning mutlaq zaruriyati hisoblanadi. Iste'molchi tovarlar va xizmatlar bo'yicha o'z tanlovida mustaqildir, biroq marketing agar taklif etilayotgan tovar yoki xizmatlar iste'molchining extiyojlari, zaruriyatlarini qondirishga mo'ljallangan bo'lsa, motivasiyaga ham, xulq-atvoriga ham ta'sir etishi mumkin.

Tovar va xizmatlarning sotilishi talabning latent (yashirin, noaniq) ko'rinishida mavjud bo'lganligi sababli ta'minlanadi va iste'molchi qulay sharoitlarda tovar va xizmatlarni tanlashi yoki aksincha tanlamasligi mumkin. Marketingda latent (yashirin, noaniq) o'zgaruvchilar deb, odatda hisoblab bo'lmaydigan ko'rsatkichlarga aytiladi. Bunga zarurat asosidagi emas, balki xissiyotlar ta'sirida qabul qilingan xarid qilish to'g'risidagi asoslanmagan qarorlarni qabul qilish misol bo'la oladi.

Firmalarning muvaffaqiyati iste'molchilar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatishga xarakat qiluvchi rahbarlar, menejerlarning faolliligiga bog'liq bo'ladi. Bunga misol qilib Shimoliy Amerikadagi Honda North America kompaniyasi menejerlar komandasining tezkor va samarali faoliyatlarini keltirish mumkin. «Ford Taurus» markali avtomobillar bozorda ularning «Accord» nomli avtomobillarini siqib chiqarganda, ular o'z avtomobillarining pirovard iste'molchilari bilan ishlashga e'tibor berish orqali holatni to'g'rilashga xarakat qilishdi.

Iste'molchilarning extiyojlari va zaruriyatlari haqiqiy hisoblanib, foydali maxsulotlar va xizmatlarni taklif etish shubhasiz foyda keltiradi. Iste'molchilar tomonidan olinadigan foyda iqtisodiy tizimni jonlantiradi.

Dunyoda mashhur bo'lgan marketing bo'yicha strateg olim Leo Bogart³ shunday deb ta'kidlagan edi: har qanday maxsus (marketing) reklama kompaniyasining bozorga aniq maxsulot yoki firmani siljitishga

3 "Leo Bogart: Sociologist and pollster". Hawtree, Christopher. The Independent. www. theindependent.co.uk Published December 19, 2005. Accessed October 24, 2017.



yo'naltirishdan tashqari, har bir iste'molchiga mo'ljallangan va doimo unda yo'q bo'lgan tovarlar va xizmatlar to'g'risida eslatib turuvchi minglab reklama murojaatnomalarini keng aralash samarasi ham mavjuddir. Shaxsiy motivatsiya darajasida bu samara yanada ko'proq iste'mol qilishga, xarid qilishga, ya'ni mukammallikka intilish sifatida seziladi. Jamoa darajasida esa u mamlakat iqtisodiy tizimining asosi va qo'llab-quvvatlovchi iqtisodiy mexanizmi hisoblanadi. Amaliyotda esa ushbu qoidalardan chetlanishlar ham mavjud bo'ladi.

Iste'molchilar xulq-atvorining ilmiy asoslari to'g'risida to'xtalab aytish mumkinki, iste'molchilarni o'rganish bo'yicha dastlabki tadqiqotlar A.Smitning eng qimmatli iqtisodiy asari "Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot"da boshlangan⁴.

T.Veblen va nufuzli iste'molchi nazariyasi, G.Zimmelning moda nazariyasi, V. Sombart va iste'molchilar xatti-harakatlaridagi hashamat tushunchasi, M. Veber o'ziga xos bo'lgan iste'molchilar guruhlar va axloqi konsepsiyasi va boshqalar. Ularning barchasi, u yoki bu tarzda, iste'molchilar amaliyotini turli pozitsiyalardan, shu jumladan ijtimoiy-madaniy pozitsiyalardan tushunishga asos yaratdi⁵.

Nazariyalarda iste'mol doimo o'sib boruvchi va tarkiban o'zgarib boruvchi qonuniyat amal qiladi. Ushbu qonuniyatlarning amal qilishi esa iste'molchilarning xatti-harakatlari jarayonini, shu jumladan iste'mol tovarlari bozorini doimiy tadqiq qilib borish zaruriyati tug'iladi⁶.

Marketingning dunyoga mashhur olimlaridan biri F. Kotler 1998 yilda marketingga ta'luqli bo'lgan masalada shunday degan edi: "Inqiroz paytida korxona bankrot bo'lmashligi uchun, u xarajatlarni qisqartirishi lozim. Biroq, har qanday vaziyatda ham marketing uchun xarajatlarni kamaytirib bo'lmaydi"⁷.

Faqat marketologlar korxonaning say-xarakterini amalga oshirishning yangi nuqtalari va rezervlarini topishlari mumkin. Agar oddiy sharoitlarda marketing korxonaning gullab-yashnashi uchun kerak bo'lsa, inqiroz sharoitida marketing korxonaning yashab qolishini ta'minlovchi yagona mexanizm hisoblanadi.

Marketing alohida fan sifatida paydo bo'lganidan keyin inson ehtiyojlarini chuqurroq o'rganishga katta e'tibor qaratila boshlandi. Inson o'ziga xos bo'lgan individual – psixologik xususiyatlar yig'indisidan iborat murakkab xulq-atvor namoyon qilib, uning tovarlarni xarid qilishdagi hatti-harakatlari doimo marketologlarni o'ylantirib keladi. Aniqrog'i, marketologlarni bir qator savollar doimo qiynaydi:

- insonning mahsulotga qiziqishini tashkil etuvchilar qanday omillardan iborat?
- iste'molchilarni korxona mahsulotlari xaridiga qanday yo'naltirish kerak?
- korxona mahsulotlarini sotib olish uchun iste'molchilarni istalgan ko'rinishda harakatga kelish uchun qanday vositalar, undashlar, rag'batlar, omillar va usullar qo'llanilishi kerak?

Marketologlarning diqqat markazida inson ehtiyojlarini tadqiq etish turib, unga ta'sir qilish yo'llarini chuqurroq o'rganishga harakat qiladilar. Bu harakatlar o'z navbatida insonning engil sanoat mahsulotlari xaridiga undovchi motivatsiyasini tashkil etuvchilarini o'rganishga olib keladi.

Shaxsning o'zi va uni o'rab turgan dunyo to'g'risida fikr yuritishi ham muxim ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Qabul qilish – bu atrof olamni tushunish maqsadida axborotni ajratish, tashkillashtirish va tushunish jarayonidir. Qizig'i shundaki, kishi sezgilari orqali (ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm sezish) va tashqi qo'zg'atuvchilar yordamida bir axborotni qabul qiladi, ammo har qaysi inson uni turlicha tushunadi. Kimga dir sergap sotuvchi juda kirishimliday tuyulsa, kimdir uni chalg'itish maqsadida shunday qilyapti, deb o'ylashi mumkin.

Kishilar tashqi qo'zg'atuvchilarga nisbatan 3 xildagi harakatni amalga oshiradilar: tanlab olish; tanlab o'zgartirish; tanlab eslab qolish.

Tanlab olish. Kishilar kuniga ba'zida mingdan ortiq axborotlarga duch keladilar. Lekin ularning hammasini eslab qolish mumkin emas: qaysinisidir kishi sezadi, qaysinisidir yo'q. Buning uchun axborot beruvchining vazifasi axborotni iloji boricha boshqalaridan ajratib ko'rsatish, kerakli joyda joylashtirishdan iborat.

Tanlab o'zgartirish. Hattoki sezilgan taqdirda ham axborot beruvchining fikri kishi tomonidan tushunilmay qolishi mumkin. Har bir kishi unda mavjud axborot doiralari boshqa axborotlarni sig'dirishga, moslashtirishga harakat qiladi. Aniq bir maqsad bilan do'konga kelgan iste'molchini ba'zida salbiy axborot berish bilan ham fikrini o'zgartirib bo'lmaydi.

Tanlab eslab qolish. Kishi qabul qilgan axborotlarining ko'pchiligini unutib yuboradi va faqat uning fikrlarini qo'llab-quvvatlovchisiningina eslab qoladi⁸.

Maykl Solomon iste'molchilarni xaridga yo'naltiruvchi hissiy motivlarning evropalik tadqiqotchilar va Amerikalik tadqiqotchilar tomonidan guruhlar ajratilganligini izohlab o'tgan.

Evropalik tadqiqotchilar quyidagi xaridga yo'naltirilgan gedonik motivlarni ko'rsatganlar:

Huzurlanish nafi: innovasion mahsulotlarga va nafiligini kutishga bo'lgan xoxish.

4 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Ось-89, 1997. – 255 с.

5 Блэкуэлл Р., Миниард П., Энджел Дж. Поведение потребителей. – СПб., 2010. – 944 с.

6 Алешина К.В. Поведение потребителей: Учебное пособие / К.В. Алешина. – М.: Фаир-Пресс, 2015. – 284 с.

7 Kotler Philipp, Fox, Karen F. A. Strategic Marketing for Educational Institutions. – New Jersey, 1998. P. 7.

8 «Маркетинг»/ А. П. Панкрухин. – 6_е изд., стер. – М. : Издательство «Омега_Л», 2009. – 656 с.



• Qaror chiqarish o'rnini: xarid harakatida keng ma'lumotga ega bo'lishning o'rnini, puxta mahsulot va narx taqqoslashlar, boshqa xaridorlar bilan imkoni boricha muhokama qilish kabilarlar.

• Eng qulayini tanlash: Juda yaxshi sotib olishni topish xoxishi.

• Savdolanish: iqtisodiy qulayliklariga va sotuvchilar bilan "bozor muhit"ida savdolanish munosabatlaridan sportchilarga o'xshab huzurlanishga intilish.

• Tegishlilik (ijtimoiy muloqot): savdo markazlari muloqot qilish uchun tabiiy joy hisoblaniladi. Bu joylar yoshlarning uchrashuv markazi bo'ladi. Bu joylar boshqa guruhlardan himoyalangan hisoblanadi.

• Vakolat va nufuz: sotuvchi xodim bilan kuchlilik o'yiniga kirishadi va o'zini xodimni boshqarayotganday his qiladi. Har bir sotuvchi ayrim kishilar narsa sotib olmasalar ham ularga xizmat qilishni yoqtirishlarini biladilar.

• Rag'batlantirish: Bozor joylarida yangi va qiziqarli narsalar taklifini qidirish – quvnoq bo'lishi uchun xarid qilish.

Amerikalik tadqiqotchilar esa xaridga yo'naltirilgan gedonik motivlarni 6 ta keng qamrovli guruhlariga ajratganlar:

• xarid sarguzashti: stimulyasiya, sarguzasht va boshqa dunyoda bo'lishni his qilishga asoslangan xarid.

• ijtimoiy xarid: o'rtoqlar, oila bilan xarid qilishdan xursand bo'lish, ijtimoiylashuv va boshqalar bilan aloqa o'rnatishga asoslanadi.

• xariddan huzurlanish: xarid qilish stresslarni engillashtirish, salbiy kayfiyatni yumshatish, biror kishini maxsus davolashni o'z ichiga oladi

• g'oya xaridi: modalar, yangi mahsulotlar va innovasiyalar xaridi.

• xarid o'rnini: xariddan huzurlanishni, ta'sirlanishni va quvonish.

• xarid qiymati: pasaytirilgan narxlarda xarid qilish, chegirmalarni qidirish va arzon savdoni izlashga asoslanadi⁹.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bozor talabining shakllanishi asosida shaxsiy (individual) talab yotadi. Ya'ni, har bir shaxs o'zining fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun qandaydir mahsulotdan, qanchadir sotib olishi kerak, sotib olish uchun ma'lum miqdorda mablag'i bo'lishi kerak. Iste'molchining mablag'i cheklangan bo'ladi. Iste'molchi har doim tanlov oldida turadi va tanlov chog'ida quyidagi uchta savolga javob izlaydi:

1. Nimani xarid qilish maqsadga muvofiq?

2. Xarid qilinadigan ne'matning narxi qancha?

3. Ne'matni xarid qilish uchun mablag' etarlimi?

Iste'mol nazariyasida ne'mat - bu iste'molchining ehtiyojini qondira oladigan har qanday iste'mol ob'ektidir. Ko'p xollarda ne'matlar yakka tartibda emas, balki majmua bilan yoki "iste'mol savati" bilan iste'mol qilinadi.

Biz shu paytgacha: iste'molchi tanlovi nazariyasida iste'molchilar ma'lum didga, xohishga ega va ular bu xohish va didlarini qanoatlantirishda byudjetlari (daromadlari) bilan chegaralangan; ular ne'matlar to'plamidan, maksimal naf keltiradigan to'plamni tanlashga xarakat kiladi; iste'molchilar tomonidan sotib olinadigan ne'mat narxi uning miqdoridan bog'liq emas; iste'molchilar ne'matlar nafligini to'liq biladi va maksimal naf beruvchi ne'matlar majmuasini tanlaydi, deb faraz qilib keldik¹⁰.

TAHLIL VA NATIJALAR

Endi iste'molchi tanlovi nazariyasi yangicha yondoshuvdan qaralmoqda. Bunda iste'molchining "naflilik" tushunchasidan ko'ra "afzal ko'rishi" tushunchasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Faraz qilaylik, iste'mol to'plami ikki tovardan iborat bo'lsin, X_1 – birinchi tovar miqdori, X_2 – ikkinchi tovar miqdori. Iste'mol to'plami unda (X_1X_2) deb belgilanadi. Ba'zi hollarda $X=(X_1X_2)$ ko'rinishdagi vektor ifodadan foydalaniladi¹¹.

Iste'molchi > belgisidan foydalanadi va u bitta tovar to'plami ikkinchisidan qat'iy afzalligini bildiradi, boshqacha aytganda (X_1X_2) > (Y_1Y_2) bo'lsa, iste'molchi (X_1X_2) to'plamni (Y_1Y_2) ga nisbatan qat'iy afzal ko'radi deb qarash kerak bo'ladi, bu shuni anglatadiki, iste'molchi (X_1X_2) tovarni olishni xohlaydi, (Y_1Y_2) to'plamni emas. Shunday qilib afzal ko'rish g'oyasi iste'molchining xohishiga asoslanadi. Bitta to'plam ikkinchisidan afzal deyish uchun shu ikkita to'plamdan qaysi birini iste'molchi tanlashiga e'tibor berishi kerak bo'ladi. Agar u (Y_1Y_2) to'plamga nisbatan (X_1X_2) to'plamni tanlasa, (Y_1Y_2) to'plamga nisbatan (X_1X_2) to'plamni afzal ko'rgan hisoblanadi.

Agar iste'molchi uchun to'plamlardan qaysi birini iste'mol qilishning farqi bo'lmasa, u quyidacha yozalad: (X_1X_2) ~ (Y_1Y_2).

9 Michael Solomon, Gary Bamossy, Soren Askegaard and Margaret K. Hogg consumer behavior a european perspective 2006 USA

10 B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –T.: Iqtisodiyot, 2019, - 366 b.

11 Адресу ас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. –М.: Дело и Сервис, 2016. - 630 стр.



Bu erda: $\sim$ befarqlik belgisi.

Befarqlik so'zi shuni bildiradiki, iste'molchi bu to'plamlarni iste'mol qilishdan bir xil qoniqish oladi, ya'ni (X_1, X_2) ham, (Y_1, Y_2) ham iste'molchini bir xil qondiradi¹².

Agar iste'molchi ikkita to'plamdan bittasini afzal ko'rsa yoki ulardan qaysi birini iste'mol qilish uning uchun befarqli bo'lsa, biz (X_1, X_2) to'plam (Y_1, Y_2) to'plamga nisbatan zaif afzal ko'rish deb qaraladi va u $(X_1, X_2) \geq (Y_1, Y_2)$ ko'rinishida ifodalanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan qat'iy afzal ko'rish, zaif afzal ko'rish va befarqli afzal ko'rish tushunchalari bir-biri bilan bog'liq. Masalan, agar $(X_1, X_2) \geq (Y_1, Y_2)$ va $(Y_1, Y_2) \geq (X_1, X_2)$ bo'lsa, unda $(X_1, X_2) \sim (Y_1, Y_2)$ deb xulosa qilish mumkin, bu erda iste'molchi qaysi to'plamni iste'mol qilishga befarq.

Huddi shunday, agar $(X_1, X_2) \geq (Y_1, Y_2)$ bo'lsa va $(Y_1, Y_2) \geq (X_1, X_2)$ bo'lishi mumkin bo'lmasa, xulosa qilish mumkinki $(X_1, X_2) > (Y_1, Y_2)$ bo'lishi aniq. Bu erda iste'molchi (X_1, X_2) to'plamni (Y_1, Y_2) ga nisbatan hech bo'lmaganda yomon emas deb hisoblaydi va shu ikki to'plamdan qaysi birini iste'mol qilish uning uchun befarqli emas bo'lsa, iste'molchi (X_1, X_2) to'plamni (Y_1, Y_2) to'plamga nisbatan qat'iy afzal ko'radi deb qarash kerak.

Iqtisodchilar iste'molchilarning afzal ko'rishini "mantiq"qa to'g'ri kelishi to'g'risida bir qator farazlar qabul qiladi. Masalan, $(X_1, X_2) > (Y_1, Y_2)$ va shu vaqtni o'zida $(Y_1, Y_2) > (X_1, X_2)$ bo'ladigan bo'lsa, bu vaziyatni qarama-qarshi deb qaramasak noto'g'ri bo'ladi. Bu erda iste'molchi bir vaqtning o'zida X ni Y dan ustun ko'radi va aksincha bunday holat qaralmaydi¹³.

To'liq tartiblashtirish yoki taqqoslash aksiomasi. Hisoblanadiki, har qanday ikkita to'plamni bir-biri bilan taqqoslash mumkin. Boshqacha aytganda, agar X to'plam va Y to'plam berilgan bo'lsa quyidagicha hisoblanadi: yoki $(X_1, X_2) \geq (Y_1, Y_2)$ ёки $(Y_1, Y_2) \geq (X_1, X_2)$ yoki $(X_1, X_2) \sim (Y_1, Y_2)$.

Refleksivlik aksiomasi. Har bir to'plam kamida o'zidan-o'zi yomon emas deb qabul qilinadi: $(X_1, X_2) \geq (X_1, X_2)$.

Tranzitivlik aksiomasi. Agar $(X_1, X_2) \geq (Y_1, Y_2)$ va $(Y_1, Y_2) \geq (Z_1, Z_2)$ bo'lsa, faraz qilinadiki, $(X_1, X_2) \geq (Z_1, Z_2)$. Boshqacha aytganda, iste'molchi X to'plamni Y to'plamga nisbatan afzal, Y to'plamni Z to'plamga nisbatan yomon emas deb hisoblasa, demak, u X to'plamni Z to'plamga nisbatan kamida yomon emas deb hisoblaydi¹⁴.

Standart afzal ko'rish nazariyasida standart beforqlik chizig'ining xususiyatlarini aniqlashga yordam beradigan quyidagi farazlar qabul qilinadi:

Birinchidan, iste'mol qilinadigan tovarlar soni qancha ko'p bo'lsa shuncha yaxshi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, agar, (X_1, X_2) bitta tovar to'plami, (Y_1, Y_2) – ikkinchi tovar to'plami bo'lib, ularda $X_1 = Y_1$ va $Y_2 > X_2$ bo'lsa, u holda $(Y_1, Y_2) > (X_1, X_2)$ bo'ladi. Qabul qilingan bu farazni afzal ko'rishning monotonlik aksiomasi (yoki to'yinmaslik aksiomasi) deb ham yuritadi. Afzal ko'rishning monotonligi holatini shunday namoyon bo'ladiki, iste'mol qilinadigan tovarlar soni to ma'lum chegaraga (to'yinish nuqtasiga) etgunga qadar baholanadi. Iste'molchilar o'zlarining to'yinish nuqtasiga erishganda ushbu nazariya qiziqarli bo'lmay qoladi.

Ikkinchidan, faraz qilinadiki, afzal ko'rishning o'rtacha qiymati, chetki nuqtalardagidan yuqori. Boshqacha aytganda, agar biz befarqlik chizig'ida yotgan ikkita tovar to'plami qaralsa (X_1, X_2) va (Y_1, Y_2) , shu ikkita to'plamning tortilgan o'rtachasi, ya'ni $(1/2X_1 + 1/2Y_1, 1/2X_2 + 1/2Y_2)$ kamida chetki (X_1, X_2) va (Y_1, Y_2) to'plamning har biridan yomon emas yoki ulardan qat'iy ustun bo'ladi¹⁵.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman, iste'molchilarning xatti-harakatlari bo'yicha tadqiqotlar real sektor korxonalari uchun ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Iste'molchilarning xulq-atvori bir qator asosiy xususiyatlar va omillarni o'z ichiga oladi, bu esa o'z navbatida uni o'rganish usullari va imkoniyatlarini qidirishni oldindan belgilab olishni talab qiladi. Keyingi vaqtlarda iste'molchilarning xatti-harakatlarini o'rganish jadal rivojlanmoqda, chunki iste'molchilarni tovarlar va xizmatlarni sotib olish to'g'risidagi qarorlarini aniqlash, baholash va ularga ta'sir ko'rsatishning yangi va ilg'or usullari va texnologiyalari tobora ko'payib bormoqda.¹⁶

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagilardan xulosa qilgan holda aytish mumkinki, marketingda iste'molchilarni xatti-harakatlarini baholashda, ular tovarlarning tanlovlarini amalga oshirayotganda qanday tovarlarni yoki qanday tovarlar to'plamini afzal ko'rishlarini albatta inobatga olish kerak. Buning uchun iste'molchilar xatti-harakatlarini ifodalovichi yuqoridagi kabi hisoblashlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar royxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон ««Ўзбекистон - 2030» стратегияси тўғрисида»ги Фармони. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>.

12 Нуриев Р. Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. – М.: Норма, 2012. – с. 576.

13 Тарануха В. Микроэкономика. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2011. – 580 стр.

14 Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2015. P. 604.

15 Пиндайк Р., Рубинфильд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2011. – с. 608.

16 Engel, J.F. Consumer Behaviour / J.F. Engel, D.T. Kollat, R.D. Blackwell. - New York: Flolt, Rinehart & Winston, 2018. - 32 p.



2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маҳаллада тадбиркорликни ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш бўйича давлат сиёсатининг устувор йўналишлари тўғрисида” ПФ-29-сон фармони. 03.12.2021 йил. <https://lex.uz>.
3. “Leo Bogart: Sociologist and pollster”.»Hawtree, Christopher. The Independent. www.theindependent.co.uk Published December 19, 2005. Accessed October 24, 2017.
4. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: Ось-89, 1997. – 255 с.
5. Блэкуэлл Р., Миниард П., Энджел Дж. Поведение потребителей. – СПб., 2010. – 944 с.
6. Алешина К.В. Поведение потребителей: Учебное пособие / К.В. Алешина. – М.: Фаир-Пресс, 2015. – 284 с.
7. Kotler Philipp, Fox. Karen F. A. Strategic Marketing for Educational Institutions. – New Jersey, 1998. P. 7.
8. «Маркетинг»/ А. П. Панкрухин. – 6_е изд., стер. – М. : Издательство «Омега_Л», 2009. – 656 с.
9. Michael Solomon, Gary Bamossy, Soren Askegaard and Margaret K. Hogg consumer behavior a european perspective 2006 USA
10. B.T. Salimov, M.S. Yusupov, B.B. Salimov. Mikroiqtisodiyot. Darslik. –Т.: Iqtisodiyot, 2019, - 366 b.
11. Аддреу ас-Колелл и др. Микроэкономическая теория. Учебник. –М.: Дело и Сервис, 2016. - 630 стр.
12. Нуриев Р. . Курс микроэкономики: учебник/ 2-е изд. –М.: Норма, 2012. - с. 576.
13. Тарануха В. Микроэкономика. Учебник. – М.: Дело и Сервис, 2011. - 580 стр.
14. Campbell R. McConnel, Stanley L. Brue, Sean M. Flynn. Microeconomics: Principles, Problems and Policies. -19 th ed. – New York. The McGraw-Hill Companies, Inc., 2015. P. 604.
15. Пиндайк Р., Рубинфильд Д. Микроэкономика. / Пер. с англ. – СПб.: Питер, 2011. - с. 608.
16. Engel, J.F. Consumer Behaviour / J.F. Engel, D.T. Kollat, R.D. Blackwell. - New York: Flolt, Rinehart & Winston, 2018. - 32 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>